

Surxondaryo viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025-yilning 1-iyul holatiga, faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 21,1 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ Adliya vazirligi taqdim etgan rasmiy ma'lumotlar asosida tayyorlangan

Shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2024-yil 1-iyul holatiga, birlik	2025-yil 1-iyul holatiga, birlik
Angor tumani	972	1 191
Bandixon tumani	494	509
Boysun tumani	840	796
Denov tumani	2 386	2 512
Jarqo'rg'on tumani	1 517	1 652
Qumqo'rg'on tumani	1 204	1 381
Qiziriq tumani	875	872
Muzrabot tumani	841	867
Oltinsoy tumani	831	977
Sariosiyo tumani	1 104	1 070
Termiz tumani	1 165	1 533
Uzun tumani	1 027	944
Sherobod tumani	1 401	1 450
Sho'rchi tumani	1 326	1 382
Termiz sh.	3 390	3 917

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni](#)

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-iyunida 2 450 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 1 064 ta, sanoatda 357 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 253 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 308 tani tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni





Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2024-yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Angor tumani	132	133
Bandixon tumani	65	68
Boysun tumani	86	47
Denov tumani	336	269
Jarqo'rg'on tumani	306	209
Qumqo'rg'on tumani	145	158
Qiziriq tumani	159	140
Muzrabot tumani	84	81
Oltinsoy tumani	158	153
Sariosiyo tumani	129	98
Termiz tumani	120	183
Uzun tumani	91	62
Sherobod tumani	161	121
Sho'rchi tumani	209	111
Termiz sh.	469	617

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 76,3 % ni tashkil qilib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan 0,5 punktga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaHMdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 807,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 72,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 116,6 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bandixon tumani (100,0 %), Termiz tumani (100,0 %), Uzun tumani (100,0 %), Oltinsoy tumani (99,8 %), Muzrabot tumani (98,7 %) va Qiziriq tumani (97,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 6 330,6 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 90,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,4 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Boysun tumani (96,7 %), Denov tumani (96,5 %) va Qiziriq (96,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 5 222,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 58,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 125,4 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Angor (91,5 %), Qumqo'rg'on (90,1 %), Uzun (90,5 %) va Oltinsoy (89,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 17 672,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 97,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 102,7 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Bandixon (99,6 %), Oltinsoy (99,6 %), Muzrabot (99,5 %) va Uzun (99,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 12 145,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 95,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Boysun (99,5 %), Qiziriq (99,4 %), Muzrabot (99,2 %) va Sariosiyo (99,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 11 321,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 73,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Boysun (83,8 %), Qiziriq (82,3 %), Muzrabot (80,4 %), Bandixon (78,9 %) va Oltinsoy (78,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 170,2 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 84,3 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Bandixon tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida - 100,0 %, Sariosiyo tumanida - 100,0 % va Boysun tumanida - 100,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 171,9 million AQSH dollarini yoki jami importning 94,5 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Bandixon tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Muzrabot tumanida - 100,0 %, Qumqo'rg'on tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida - 100,0 %, Uzun tumanida - 100,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025-yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,2 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,0 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,8 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6,% ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,5 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)


V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 31,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida esa 41,3 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-iyunida nisbatan 10,2 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 60,4 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida 51,1 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2021-yilning yanvar-iyunida 8,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 7,6 % ga yetgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 53,4 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida 70,1 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 42,0 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida 27,5 % yoki 14,1 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2021-yilning yanvar-iyunida 4,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 2,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2025-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda - 43,0 % ni, qurilishda - 51,0 % ni va xizmatlar sohasida - 40,7% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 56,3 % ni, xizmatlar sohasida - 53,4 % ni va sanoatda - 60,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 11,3 % ni, savdoda - 7,2 % ni va qurilishda - 13,0 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o‘z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo‘lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas’ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo‘limi

Ijrochi:

A. Shoberdiyev
55 451-80-00 (1)

Manzil:

